

**MUVOFIQLIKNI BAHOLASH ORGANLARINI MILLIY VA XALQARO  
AKKREDITATSIYADAN O‘TKAZISHNING ASOSIY MASALALARI**

*Ergashov Baxodir Abdumuxtor o‘g‘li*

*E-mail: ebahodir611@gmail.com*

*Axmadjanov Suxrob Baxtiyor o‘g‘li*

*E-mail: Suhrobahmadjonov7@gmail.com*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasini muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish tartibi va laboratoriyalarni akkreditlash bo‘yicha xalqaro hamkorlik tashkilotiga to‘laqonli a‘zo bo‘lishdan maqsad va vaziafalari yoritib berilgan. Kerakli fikr va mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** akkreditatsiya, xalqaro hamkorlik, o‘zaro tan olish, muvofiqlikni baholash, akkreditlashtirish tizimi.

Zamonaviy dunyoda iste‘molchilarning iste‘mol madaniyati oshgani sari zamonaviy texnologiyalarni tadbiq qilish, ularni moslashuvchanligi, sinov va muvofiqlikni baholash tizimining samarali faoliyati, sifatli, xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarish, inson sog‘ligiga va atrof muhitni ximoya qilishda rivojlangan mamlakatlar tajribalarini mamlakatimiz sharoitiga moslashtirgan holatda ish olib borishni taqazo etmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida xalqaro xamkorlik bitimlarining imzolanishi, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish orqali mamlakatimiz eksport saloxiyatini yanada kuchaytirgan uchun ko‘plab say harakatlar jadallik bilan amalga oshirilyapti. Bu esa mahsulot va xizmatlarning raqobotbardoshligiga erishishga xizmat qilib iqtisodiyotning rivojlantirish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilib kelmoqda.

Hozirgi kunga kelib, akkreditlash zamonaviy texnik jihatdan tartibga solish tizimining muhim elementi hisoblanadi va texnik reglamentlar, standartlar va boshqa hujjatlar talablariga mahsulotlar yoki xizmatlar muvofiqligini ob‘ektiv baholash uchun sharoitlar yaratadi.

O‘zbekistonning oldiga qo‘ygan ilg‘or maqsadlaridan biri, Butunjahon savdo tashkilotiga teng huquqli a‘zosi bo‘lishida mamlakat laboratoriyalari tomonidan olingan sinash va kalibrlash natijalarini tan olish ehtiyoji yuzaga keladi, bu birinchi navbatda dunyo tajribasida qabul qilingan akkreditlash talablari va mezonlarini, bizning mamlakatda qabul qilinganlari bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi.

Muhim xalqaro vazifalardan biri, akkreditlash milliy tizimlarini va mos ravishda, ular tomonidan akkreditlangan sinov laboratoriyalari tan olish hisoblanadi.

Ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida, natijalarni o‘zaro tan olish to‘g‘risida mintaqaviy Bitimni shakllantiruvchi va akkreditlashning

unifikatsiyalashtirilgan tartib-taomiliga ega bo'lgan, laboratoriyalarni akkreditlash bo'yicha organlarning mintaqaviy uyushmalari tashkil etilgan va tashkil etilmoqda. Sinov laboratoriyalarini akkreditlashning milliy va xalqaro tizimlarining turli huquqiy va texnik savollarini ishlab chiqish va o'rganish; qabul qilingan xalqaro bitimlar to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish; akkreditlash milliy tizimlarini o'zaro tan olish uchun, 1975 yilda, jahon akkreditlash tizimida bosh tashkilot bo'lgan, Laboratoriyalarni akkreditlash bo'yicha xalqaro hamkorlik (ILAK) tashkil etilgan edi.

Milliy akkreditlash tizimlari va shunga muvofiq ular tomonidan akkreditlangan sinov laboratoriyalari (sertifikatlash bo'yicha organ)ni tan olish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Sinov laboratoriyalarini akkreditlash milliy va xalqaro tizimlarining huquqiy va texnik masalalarini avvalo ishlab chiqish, so'ngra o'rganish, qabul qilingan xalqaro kelishuvlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish milliy akkreditlash tizimlari va milliy laboratoriyalarning ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama tuzilgan shartnomalar asosida o'tkazilgan sinov natijalarini o'zaro tan olish masalalari bilan 1975 yildan buyon ILAC sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferensiya shug'ullanadi. 1996 yilda u sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha Xalqaro hamkorlikka (avvalgi maqomi va qisqartma nomi ILAK bilan) aylantirilgan.

Shunday qilib, mintaqaviy va xalqaro darajalarda tashkil etilgan baholash mexanizmlari, o'zaro tan olish to'g'risida Bitim va akkreditlash organlari faoliyatini ISO/IEC 17011 standarti talablarini bajarish lozim bo'ladi. Bu standart "Muvofiqlikni baholashni akkreditlovchi idoralar, akkreditlashtirish idoralari uchun umumiy talablar" akkreditlashtirish organlarini faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro standart talablariga muvofiq ishlashini ta'minlaydi. Bunday baholashdan o'tgan organlar, o'zaro tan olish to'g'risida bitim ishtirokchisi bo'lishlari mumkin. Davriy takroriy baholash, tan olish to'g'risidagi bitim ishtirokchilariga doir talablarga doim rioya qilinishini ta'minlaydi.

O'zaro tan olish to'g'risida ko'p tomonlama bitimlar ishtirokchilari, akkreditlash natijalarini taqqoslash, solishtirish va o'zaro tan olish orqali muvofiqlikni bir marta baholash jarayonini kuchaytiradilar. Bu esa o'z navbatida, bir iqtisodiy tizimda faoliyat olib boruvchi muvofiqlikni baholash organi, o'zining shunday hajmdagi akkreditlashini, boshqa akkreditlash organlari yordamida tasdiqlashi zaruriyatiga o'rin qolmasligini anglatadi.

Akkreditatsiya texnik jihatdan tartibga solish tizimining eng muhim elementi bo'lib, mahsulot yoki xizmatlarning texnik reglamentlar, standartlar va boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini obyektiv baholash uchun sharoit yaratadi. Akkreditatsiya organining vakolati akkreditatsiya natijalariga ishonchga erishishning asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga kirigandan so'ng, mahalliy laboratoriyalar tomonidan olingan sinovlar va kalibrlash natijalarini jahon bozorida tan

olish zarurati paydo bo'ldi, bu birinchi navbatda jahon amaliyotida qabul qilingan talablar va akkreditatsiya mezonlarini mamlakatimizdagi sinov laboratoriyalari yoki sertifikatlashtirish organlariga tadbiq qilishni talab etadi.

O'zbekiston Milliy akkreditatsiya tizimlarini va shunga mos ravishda ular tomonidan akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalarini xalqaro hamjamiyatni tan oldira olish muhim xalqaro vazifalardan biridir.

Jahon akkreditatsiya hamjamiyatining asosiy tendentsiyasi - birlashish va natijalarni o'zaro tan olishga intilishdir. Mana shu maqsadda xalqaro va mintaqaviy akkreditatsiya tashkilotlari tashkil etilgan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasi yaqin vaqtgacha ushbu tashkilotlarning hech birida vakillik qilmagan. o'zaro tan olish faoliyatining bir qismi akkreditatsiya organlariga qo'shimcha yagona talablar shakllantirildi, natijalarni kuzatish, noaniqlik, xodimlarga, ekspertlarga qo'yiladigan talablar, o'zaro tan olish faoliyati va boshqalar masalalari bo'yicha yagona siyosat ishlab chiqildi.

Ushbu vazifani amalga oshirish uchun akkreditatsiya qilishning yagona tartib-qoidalariga ega bo'lgan va natijalarni o'zaro tan olish bo'yicha mintaqaviy bitimlar tuza olish qobiliyatiga ega bo'lgan sinov laboratoriya va sertifikatlashtirish idoralari akkreditatsiyasi organlarining hududiy birlashmalari tashkil etish va ushbu organlarning talab darajasidagi muvofiqlikni baholash organlarini faoliyatini yo'lga qo'yish lozim. Sinov laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish uchun qabul qilingan xalqaro shartnomalar, milliy akkreditatsiya tizimlarini o'zaro tan olish to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash ishlarini yuritish maqsadida 1975 yilda Akkreditatsiya bo'yicha xalqaro hamkorlik tashkiloti (ILAC) tashkil etilgan bo'lib, u jahondagi akkreditatsiya qilish tashkilotlari orasida yetakchi tashkilotga aylandi.

Ushbu tashkilotning asosiy maqsadi butun jahon mamlakatlarining milliy akkreditatsiya organlari orasida o'zaro baholash va o'zaro tan olish masalalarini hal qilishdir.

ILACga a'zo akkreditatsiya organlari muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro standartlar asosida baholab, akkreditatsiyadan o'tkazib boradilar. ISO/IEC 17025 standartini tadbiq etgan ILAC a'zo davlatlar akkreditatsiya organlari tomonidan baholangan sinov laboratoriyalari natijalarining barcha davlatlarda qo'shimcha tekshiruvlarsiz tan olinishiga va texnik to'siqlarsiz mamlakatlar chegarasidan o'tishiga ko'maklashadi. Mahsulotlar eksportni qabul qilayotgan davlat chegarasidan kirib kelayotganida qo'shimcha sinov va inspeksiya o'tish zaruratidan xalos bo'ladi. Xukumat va nazorat idoralari shu sabab mahalliy va milliy xizmatlarni taqdim qilishda, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari va toza ichimlik suvi, energiya bilan ta'minlashda, tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish yoki atrof-muhit musaffoligini saqlashda, savdo bitimlarini davom ettirish va kengaytirish kabi masalalarda ILAC MRA afzalliklaridan foydalanishlari mumkin.

Bunday imtiyozlarga ega bo'lishining sababi ISO/IEC 17025 standarti laboratoriyalarning faoliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan. Mazkur standartdan laboratoriyalarga qo'yiladigan talablar o'rin olgan bo'lib, bu talablar laboratoriyalarga ular o'z faoliyatini to'g'ri amalga oshirishlarini va ishonchli natijalar olinishini ta'minlay olishlarini namoyish qilish imkonini beradi. Mazkur hujjat talablariga javob beradigan laboratoriyalar o'z faoliyatini ISO 9001 prinsiplariga muvofiq amalga oshiradi.

Mintaqaviy va xalqaro miqyosda yaratilgan baholash mexanizmlari akkreditatsiya organlari faoliyatining o'zaro tan olish to'g'risidagi bitim talablariga va akkreditatsiya organlari faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro standart ISO / IEC 17011 standarti bo'lib hisoblanadi

Ko'p tomonlama o'zaro tan olish to'g'risidagi bitimlar a'zolari akkreditatsiya natijalarini taqqoslash va o'zaro qabul qilish yo'li bilan bir martalik muvofiqlikni baholash jarayonini amalga oshiradilar. Bu bir iqtisodiy tizimda faoliyat yurituvchi muvofiqlikni baholash organiga uning akkreditatsiyasini tasdiqlash uchun zarurat yo'qligini anglatadi.

Sinov laboratoriyalar uchun alohida akkreditatsiya organi misolida ILAC va akkreditatsiya bo'yicha mintaqaviy hamkorlik talablariga muvofiq akkreditatsiya tartib-qoidalarini uyg'unlashtirish bo'yicha harakatlar olib borish va ijobiy natijalarga erishish mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun katta yutuq hisoblanadi. Mamlakatimiz laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish bo'yicha Osiyo-Tinch okeani hamkorligi (APLAC) tashkiloti bilan hamkorlikni yaxshilashi lozim. ILAC va APLAC natijalarini o'zaro tan olish bo'yicha ishlarni yuqori darajada yo'lga qo'yish O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ortiqcha texnik to'siq va harajatlarsiz jahon bozoriga chiqishini ta'minlaydi.

O'zaro tan olish bitimda ishtirok etish uchun ariza beruvchi organlarga qo'yiladigan ILAC talablari, jumladan, ISO/IEC 17011 ga muvofiq sifat menejmenti tizimiga bo'lgan talablar bajarilishi lozim. Bundan tashqari, akkreditatsiya organi amaliyoti nafaqat xalqaro, balki ichki talablarga ham zid bo'lmasligi kerak. Tajribalar shuni namoyon qilmoqdaki o'zaro tan olish talablarini bajara oladigan tizimni yaratish zarur. Ichki talab va mezonlarni xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish orqali akkreditatsiya organlari faoliyatini takomillashtirib borish eng to'g'ri yo'ldir.

Buning uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Akkreditatsiya organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari va o'zini o'zi baholash mezonlarini aniqlash maqsadida akkreditatsiya sohasidagi mahalliy va xorijiy tajribani o'rganish lozim. Chunki o'rganilgan tajribalar asosida faoliyat me'zonlarini ishlab chiqish ishonchliroq va samaraliroq bo'ladi. Ishlab chiqilgan me'zonlar asosida akkreditatsiya organining sifat menejmenti tizimining samaradorligini oshirishga ko'maklashuvchi akkreditatsiya organining o'zini o'zi baholash metodologiyasini

ishlab chiqiladi. O'z-o'zini baholash metodologiyasini joriy etish natijasida akkreditatsiya organining xalqaro e'tirofini olish imkoniyatini ta'minlanadi. Xalqaro va ichki talablarni hisobga olish algoritmini ishlab chiqish orqali ILAC va APLAC kabi nufuzli tashkilotlar talablari bilan integratsiyalash imkoniyati paydo bo'ladi. So'ngra faoliyat turlari bo'yicha akkreditatsiya organlarining o'zini o'zi baholash mezonlari shakllantiriladi. Sinov laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish bo'yicha organning o'zini o'zi baholash metodologiyasi ishlab chiqish, unda akkreditatsiya bo'yicha jahon tajribasini integratsiyalash va O'zbekiston iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tish dinamikasini yuksaltish kabi ishlarni amalga oshiriladi.

O'zbekiston va jahon hamjamiyatining o'xshash akkreditatsiya tartib-qoidalari ishlab chiqilsa, bu orqali natijalarni o'zaro tan olish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarining sinov laboratoriyalarini akkreditatsiya qilishni rivojlantirish va rag'batlantirish sohasidagi joriy tendentsiyalari tahlili asosida mamlakatimiz laboratoriyalari tomonidan olingan sinov va kalibrash natijalarini tan olish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Mahalliy akkreditatsiya organlarining xalqaro tan olinishi va ILACning o'zaro tan olinishi to'g'risidagi bitimga kirishi uchun shart-sharoitlar yaratish soha mutaxassislarining oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bakhodir, E. (2021). Effects of Change on Cotton Harvesting Physical and Mechanical Performance. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(7), 9-13.
2. Mirkhojaev, M. M., & Ergashov, B. A. O. (2020). Analysis of determination of cotton field quality as a result of changes in technological processes. *SAARJ Journal on Banking & Insurance Research*, 9(6), 38-44.
3. Baxodir, E., Azimjon, M., & Hayitali, O. (2022). PAXTANI YETISHTIRISHDAGI IQLIMIY SHAROITNI UN DAN OLINADIGAN TOLA SIFAT KO 'RSATKICHLARIGA TA'SIRI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMYIY JURNALI, 89-94.
4. Ruxiddinovna, N. Y., & Ayubjanovna, T. G. (2022). GENERAL DEVELOPMENT OF EDUCATION IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS METHODOLOGICAL PRINCIPLES. *Journal of Positive School Psychology*, 8560-8566.
5. Baxodir, E., Hayitali, O., & Ramshid, A. (2022). IPAK QURTINI BOQISH SHAROITINI OLINADIGA IPAK MAHSULOTLARI SIFAT KO 'RSATKICHLARIGA TA'SIRI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMYIY JURNALI, 95-100.

6. Bakhodir, E., & Mastona, N. (2022). Product Quality of Regulatory Documents Place for Improvement. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(3), 71- 74.
7. Baxodir, E., & Ramshid, A. (2022). KO ‘MIR MAHSULOTLARINING NAVLARI BO ‘YICHA QIYOSIY TAHLILI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 101- 105.
8. Baxodir, E., & Asadbek, A. (2022). GIDRAVLIK VA MEXANIK PRESSLAR YORDAMIDA SUV TASHISH MASHINALARINING MUVOZANATDAN CHIQUIB KETISHINI OLDINI OLISH USULLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1-4.
9. Bakhodir, E., & Ramshid, A. (2022). Comparative Analysis of Coal Products Extracted From Central Asian Coal Deposits. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(5), 9-12
10. Ergashov, B., Muhammadqodir, N., & Zafarbek, T. (2022). CHIGITLI PAXTANI TOZALASH JARAYONIDA NAMLIK TASIRIDA SIFAT KO ‘RSATKICHLARINI O ‘ZGARISHI. *Journal of new century innovations*, 17(3), 17-20.
11. Ergashov, B., Sobirjonova, X., & Muhammadiyeva, M. (2022, November). O ‘ZBEKISTONDA YETISHTIRILADIGAN JUN TOLALARINING SIFAT KO ‘RSATKICHLARI TAHLILI. In *Conference Zone* (pp. 127-132)
12. Abdumuxtor o‘g‘li, E. B., & Rustamjon o‘g‘li, J. S. (2022). TEXNOLOGIK JARAYONLAR TA‘SIRIDA PAXTA TOLASINING SIFAT KO ‘RSATKICHLARINI O ‘ZGARISHI. *IJODKOR O‘QITUVCHI*, 3(25), 47-52.
13. EB Abdumuxtor o'g'li. (2023). Ipak Qurtini Parvarishlashning Samarali Usulini Ishlab Chiqish Omillari. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 123-127.
14. EB Abdumuxtor o'g'li, JS Rustamjon o'g'li. (2022). TEXNOLOGIK JARAYONLAR TA‘SIRIDA PAXTA TOLASINING SIFAT KO ‘RSATKICHLARINI O ‘ZGARISHI IJODKOR O‘QITUVCHI, 47-52
15. AA Normatjonovich, EB Abdumukhtar, OH Sharobiddin. (2023). Босимни ўлчаш усулларининг қиёсий таҳлили. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 147-152.
16. S. A. A. ., Sh, K. ., B, E. ., & M, M. . (2023). Effect of Load Carrying Capacity of Tractor Tires on Work Quality. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(2), 94–100. Retrieved from <http://jica.innovascience.uz/index.php/jica/article/view/83>